


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
Muratov Abdulaziz Uktamovich	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA	38
Raximov Alisher Ibragimovich	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI	45
BekmurodovAbbos Amiriddinovich	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
Makhambetova Uringul Reimbaevna	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	55
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI	62
Ergasheva Ma'mura Gayratovna	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
Axmedova Nilufar Shuxratovna	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH	74
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES	82
Farida Nishanova	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	87
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI	92
Iskandar Yunusov	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	108
Rahimov Qodir Ergashevich	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	115
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI	124
Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
Raxmonova Nigina Anvarovna	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA	132
Farida Nishanova	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	137
Inobatov Abror Boshlarovich	
REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI.....	144
Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS»)	151
Мусаева Шоира Азимовна	
O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	161
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI.....	166
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI.....	170
Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra	
АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON).....	175
Киямов Рахматулло Рузиевич	
MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	180
Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista	
OZIQ-OVQAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT STRATEGIK ZAXIRALARINING O'RNINI	184
Bazarov Nazirjon, Normurodov Alibek	
O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA UNI BARTARAF ETISHDA TADBIRKORLIKNING ROLI: IQTISODIY TAHLIL VA TENDENSIYALAR.....	190
Uzakov Sh. Sh.	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	196
Raximov Faxriddin Shavkatovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ	201
Петр Ким	



УЧЁТ ВЫБЫТИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ОРГАНИЗАЦИИ.....	207
Туракулов Шахриёр, Пашаходжаева Дилдора HUDUDIY IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI KO'P OMILLI REGRESSION TAHLIL ASOSIDA MIQDORIY BAHOLASH (BUXORO VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA).....	213
Ergashev Sherali Erali o'g'li NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA QISQA MUDDATLI TA'SIRINI EMPIRIK BAHOLASH	217
Djumonov Dilshod Safaroliyevich O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	222
Djumayev Zayniddin Axmedovich JIZZAX VILOYATI KICHIK BIZNES TIZIMINING EMPIRIK MA'LUMOTLAR BAZASI VA TAVSIFIY STATISTIK TAHLILI	227
Atamuratova Gulrux Muzafarovna KIMYO SANOATI KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH VA 2032-YILGACHA PROGNOZLASH.....	232
Razikov Otabek Rustamovich ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ РАЗВОЛОКНЕНИЯ ПУТАНКИ	240
Одилхонова Нафиса, Атаханов Авазбек SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI	247
Sayfiyev Jasur Ravshanovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA RAQOBAT MUHITI VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	253
Rizoqulova Elnora Otabek qizi YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY OMILLARI.....	260
Ergashev Erkin Iroqovich QULOQ CHANOG'I VA YUZ YON TASVIRI ASOSIDA SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH.....	264
Mamatov Narzillo, Samijonov Abdurashid, Abdullaeva Barno, Usarov Jurabek ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ РОТОРНО-УПРАВЛЯЕМЫХ СИСТЕМ (РУС) И ВИНТОВЫХ ЗАБОЙНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ (ВЗД) ПРИ БУРЕНИИ НЕФТЯНЫХ И ГАЗОВЫХ	271
Жахонгир Эркин угли Абдиганиев, Шерали Халлокович Умедов KO'KRAK BEZI SARATONINING MOLEKULYAR SUBTIPLARINI PROGNOZ QILISHDA MULTIPARAMETRIK MRT VA SUN'IY INTELLEKT MODELLARINING INTEGRATSIYASI	282
Sulaymanov Dilshod, Alikariyev Isroiljon ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH ("URGUT" ERKIN IQTISODIY ZONASI MISOLIDA)	288
Yazdanov Mirjaxon G'ayrat o'g'li IQLIM O'ZGARISHLARINING HUDUD BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH REYTINGI: NAZARIY-USLUBIY YONDASHUV	294
Madenova Elmira Nizamatdinovna TIJORAT BANKLARI FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY JIHATLARI	300
Turanov M. Sh. BELAZ YUK MASHINALARINING SHARLI O'Q DETALLARDAGI KUCHLANISH KONSENTRATSIYASINING TAHLILI VA MUSTANKAMLIKKA TA'SIRI.....	306
Yusupov Abdulaziz, Pushanov Akbar, Jo'raqulov Ixtiyor, Jaxonov Shoxrux ОЧИСТИТЕЛЬНАЯ СЕКЦИЯ ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНОГО АГРЕГАТА С НАКЛОННЫМИ КОЛКАМИ НА КОЛКОВЫХ БАРАБАНАХ.....	311
Эргашев Рахимжон, Мавлянов Айбек, Росулов Рузимурод SUV-SUV TIZIMIDA ISSIQLIK ALMASHINISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH	316
Karabayev Asatilla, Yo'liiyev Shukurali, Abduqayumov Jamoliddin	



HUDUDLARDA AGROTURISTIK SALOHİYATNI BAHOLASH USLUBI	323
Qodirov Azizjon, Rustamov Adhamjon, Jumayeva Ozoda	
ROI-WEIGHTED PRIMARY FRAME FILTERING FOR EFFICIENT DEEP VIDEO SURVEILLANCE	329
Shohruh Begmatov, Mukhriddin Arabboev, Akhram Nishanov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	340
Sharipova Munojot Murodullayevna	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ ПО ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ	348
Баходиров Азизжон Баходирович, Пашаходжаева Дилдора Джабборхоновна	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	353
Isomuxamedov Akbarjon Bahodir o'g'li	
BUYUK BRITANIYADA BILVOSITA SOLIQLAR TIZIMINING EVOLYUTSIYASI	359
Malika Sharipova Maxmudjon qizi	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING BESH BOSQICHLI REYTING SHKALASI: METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY TATBIQ ("O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ MISOLIDA)	367
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
«ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ»	372
Ким Т.В.	
XUSUSIY UNIVERSITETLARNI IQTISODIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ICHKI MANBALARI: BALANS TARKIBI VA AKTIVLARNI KAPITALLASHTIRISH TAHLILI	378
Rahimov Sardor Uralovich	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ	383
Кадыров Арслан, Пашаходжаева Дилдора	
RAQAMLI BANK ISHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, INNOVATSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	388
Shokirov Sardor Inotdullo o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	393
Malikova Shoira Baxtiyorovna	
BUXORO VILOYATI OZIQ-OVQAT SANOATINI SIRKULAR IQTISODIYOT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ...	398
Kudratov Muhammad Rustamovich	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORINING TASHKILYI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI	402
Abdumalikov Shoxjahan Jaloliddin o'g'li	
BIZNES TAHLILIDA KATTA MA'LUMOTLAR VA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	407
Umarov Abbos Nuriddin o'g'li	
MINTAQA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	414
Oramov Jahongir, Muxitdinov Xudayar	
POSE-AWARE FACE SELECTION FOR IMPROVING FACE IDENTIFICATION RELIABILITY	419
Shohruh Begmatov	
O'ZBEKISTONDA EKSPORT UCHUN MEVA-SABZAVOT YETISHTIRISH VA UNI SUG'URTALASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....	433
Kalenov K.T.	
INNOVATSION MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH ORQALI SUG'URTA FAOLIYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH.....	438
Ergashev Olim Kenjayevich	



CUSTOMS PROCEDURES AND TRADE FACILITATION CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S CROSS-BORDER TRADE: A POLICY REVIEW.....	444
Khanifakhon Solikhova	
SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI	449
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
THE DIGITAL GASTRONOME: HOW TECHNOLOGY CONNECTS TOURISTS, RESTAURANTS, AND THE TECH EMPIRE.....	455
Freshta Qayoumy	
ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ.....	462
Т.В. Ким	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI STRATEGIK BOSHQARISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: SUN'IY INTELLEKT, BIG DATA, LEARNING ANALYTICS VA DATA- DRIVEN GOVERNANCE.....	468
O'ktamova Durдона Baxtiyor qizi	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYAVIY RESURSLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI	474
Tagriyeva Farida Abdulkarimovna	
O'ZBEKISTONDA MOSH EKSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH: RCA INDEKSI, QO'SHILGAN QIYMAT VA EKSPORT ZANJIRI TAHLILI.....	479
Islamova Malika Ilyos qizi, Muhammad Ali Hakimovich Saidov	
ФИНТЕХ-РЕШЕНИЯ ДЛЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА: ЦИФРОВЫЕ ПЛАТЕЖИ, КРАУДФАНДИНГ И ДОСТУП К КАПИТАЛУ	485
Ли Д. Э.	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR TO'PLAMIDA ANOMALIYALARNI ANIQLASH UCHUN K-MEANS VA DBSCAN ALGORITMLARINING NAZARIY OPTIMALLASHUV MODELLARI.....	489
Jo'rayev Sherali Umarjonovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR O'RNI.....	497
Puotr Kim	
ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ СВАРКИ МАГНИЕВЫХ СПЛАВОВ	503
Эрматов Зиядулла, Садуллаева Бувалма	
ZINGIBER OFFICINALE ROSC. IN VITRO MADANIYATIDA MIKRORIZOMOGENEZ VA KALLUS REGENERATSIYASINI NANOSTRUKTURALI ELITSITORLASH VA VAQTINCHALIK IMMERSION TIZIMLARI (TIS) YORDAMIDA JADALLASHTIRISHNING MOLEKULYAR-GENETIK VA FIZIOLOGIK ASOSLARI	508
Shamsiddinova Shahrizoda	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA B2B MODELIDAGI BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH: KIMYO SANOATI MISOLIDA TAHLIL	513
Xaydarova Kamola Axinjanovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI PORTFELI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY- METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	518
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	
FERMER XO'JALIKLARINING XALQARO BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUVI SALOHİYATINING 2032-YILGACHA ISTIQBOL PROGNOZI	524
Tursunqulov G'olibjon Shavkat o'g'li	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	533
Nomozova Qumri Isoyevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Nomozova Qumri Isoyevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori

ORCID: 0009-0009-6116-765X

E-mail: kumrinomozova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning O'zbekiston sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligiga ta'siri tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida elektron polislar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, avtomatlashtirilgan anderryayting va raqamli da'volarni boshqarish tizimlarining sug'urta kompaniyalari moliyaviy hamda operatsion natijalariga ta'siri baholangan. O'zbekiston sug'urta bozorining rasmiy statistik ko'rsatkichlari asosida sug'urta mukofotlari, shartnomalar, da'volar va sug'urta to'lovlari dinamikasi tahlil qilingan. "O'zbekinvest" AJ va "ALSKOM" AJ faoliyati misolida raqamli sotuv kanallarining kengayishi, ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash hamda da'volarni tartibga solish samaradorligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, sug'urta tashkiloti, faoliyat samaradorligi, raqamli transformatsiya, elektron polis, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan anderryayting, raqamli da'volar, operatsion xarajatlar, InsurTech.

Аннотация. В данной статье исследовано влияние цифровых технологий на эффективность деятельности страховых организаций Узбекистана. В рамках исследования оценено воздействие электронных страховых полисов, мобильных приложений, искусственного интеллекта, анализа больших данных, автоматизированного андеррайтинга и систем цифрового урегулирования страховых претензий на финансовые и операционные результаты страховых компаний. На основе официальных статистических показателей страхового рынка Узбекистана проанализирована динамика страховых премий, договоров, претензий и страховых выплат. На примере деятельности АО «Узбекинвест» и АО «ALSKOM» изучены расширение цифровых каналов продаж, автоматизированная обработка данных и эффективность урегулирования страховых претензий.

Ключевые слова: цифровые технологии, страховая организация, эффективность деятельности, цифровая трансформация, электронный полис, искусственный интеллект, автоматизированный андеррайтинг, цифровые претензии, операционные расходы, InsurTech.

Abstract. This article examines the impact of digital technologies on the operational efficiency of insurance organizations in Uzbekistan. The study assesses the effects of electronic insurance policies, mobile applications, artificial intelligence, big data analytics, automated underwriting, and digital claims management systems on the financial and operational performance of insurance companies. Based on official statistical indicators of the insurance market of Uzbekistan, the dynamics of insurance premiums, contracts, claims, and insurance payouts are analyzed. Using the cases of JSC "Uzbekinvest" and JSC "ALSKOM", the study explores the expansion of digital sales channels, automated data processing, and the efficiency of claims settlement processes.

Keywords: digital technologies, insurance organization, operational efficiency, digital transformation, electronic insurance policy, artificial intelligence, automated underwriting, digital claims, operating costs, InsurTech.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliyaviy xizmatlar bozorining tarkibi, biznes jarayonlari va boshqaruv mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Mazkur transformatsiya sug'urta sohasida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etib, sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, risklarni baholash, tariflarni belgilash, shartnomalarni rasmiylashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va sug'urta da'volarini tartibga solish jarayonlarini yangi texnologik asosda tashkil etishni talab qilmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, bulutli hisoblash, masofaviy identifikatsiya, avtomatlashtirilgan anderryayting, mobil ilovalar va elektron polislar sug'urta tashkilotlarining operatsion faoliyatini tezlashtirib, boshqaruv qarorlarining aniqligi hamda iqtisodiy natijadorligini oshirish imkonini bermoqda.

Sug'urta tashkiloti faoliyati samaradorligi ko'p o'lchovli iqtisodiy kategoriya bo'lib, u faqat foyda yoki rentabellik ko'rsatkichlari bilan cheklanmaydi. Mazkur samaradorlik sug'urta portfelining sifati va

diversifikatsiyasi, to'lov qobiliyati, likvidlik, operatsion xarajatlar darajasi, sug'urta to'lovlarning tezkorligi, mijozlar bazasining kengayishi va xizmat ko'rsatish sifati orqali kompleks baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar sug'urta kompaniyasining alohida funksional yo'nalishlariga ta'sir etuvchi vosita emas, balki uning moliyaviy, tashkiliy va boshqaruv samaradorligini bir vaqtning o'zida o'zgartiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar sug'urta faoliyatining barcha bosqichlarida iqtisodiy samara yaratadi. Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash va tahlil qilish risklarni aniqroq tasniflash, sug'urta tariflarini individualashtirish hamda yuqori zarar keltirish ehtimoliga ega mijozlarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Elektron sotuv kanallari va masofaviy xizmatlar esa filiallar, qog'oz hujjatlar va an'anaviy vositachilik bilan bog'liq xarajatlarni qisqartiradi. Sug'urta hodisalarini raqamli qayd etish, zararni masofadan baholash va avtomatlashtirilgan antifrod tizimlaridan foydalanish to'lov jarayonining tezkorligi hamda shaffofligini oshiradi. Natijada sug'urta tashkilotining resurslardan foydalanish samaradorligi, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va bozordagi raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish va sug'urta bozorining institutsional salohiyatini mustahkamlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-son Qonun, Prezidentning sug'urta bozorini raqamlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan PQ-5265 hamda PQ-108-son qarorlari, shuningdek, elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilovchi normativ hujjatlar milliy sug'urta bozorida raqamli transformatsiyaning huquqiy asoslarini shakllantirdi. Ushbu hujjatlarda sug'urta shartnomalarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish, elektron polislarni shakllantirish, ularning haqiqiylikni tekshirish va sug'urta xizmatlarini masofadan ko'rsatish mexanizmlarini kengaytirish vazifalari belgilangan.

Mazkur institutsional o'zgarishlar sug'urta tashkilotlari oldiga yangi iqtisodiy talablarni qo'yimoqda. Endilikda sug'urtalovchining bozordagi mavqeyi faqat ustav kapitali, filiallar soni yoki yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi bilan emas, balki ma'lumotlarni boshqarish sifati, raqamli kanallarning rivojlanganligi, xizmat ko'rsatish tezligi, mijozlar bilan uzluksiz aloqa o'rnatish qobiliyati va texnologik innovatsiyalarni biznes jarayonlariga integratsiya qilish darajasi bilan ham belgilanmoqda. Shu sababli raqamlashtirish sug'urta kompaniyalarining qisqa muddatli operatsion natijalarigagina emas, balki ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va strategik raqobatbardoshligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, raqamli texnologiyalarni joriy etish har doim ham avtomatik ravishda yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlamaydi. Dasturiy ta'minot, server infratuzilmasi, axborot xavfsizligi va malakali mutaxassislariga yo'naltiriladigan dastlabki investitsiyalar katta xarajatlarni talab qiladi. Bundan tashqari, mavjud axborot tizimlarining o'zaro mos emasligi, ma'lumotlar sifatining pastligi, xodimlarning raqamli ko'nikmalari yetarli emasligi va kibertahdidlarning kuchayishi texnologik loyihalarning kutilgan natijasini pasaytirishi mumkin. Shu bois har bir raqamli yechim uning iqtisodiy samarasi, joriy etish xarajatlari, risklarni kamaytirish imkoniyati va kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishiga qo'shadigan hissasi nuqtayi nazaridan baholanishi lozim.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning sug'urta mahsulotlari savdosi, anderryayting, risk-menejment va da'volarni tartibga solishga ta'siri keng yoritilgan. Shunga qaramay, O'zbekiston sug'urta tashkilotlari faoliyatida raqamlashtirishning moliyaviy natijalarga, operatsion xarajatlarga, mijozlar qamroviga va xizmatlar sifatiga kompleks ta'sirini baholash masalalari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda sug'urta faoliyatining ayrim yo'nalishlari alohida tahlil qilinib, raqamli transformatsiyaning umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yaxlit mezonlar asosida baholanmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalarning sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligiga ta'siri zamonaviy sug'urta iqtisodiyotining ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda raqamlashtirish sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, risklarni baholash, sotuv kanallarini kengaytirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va da'volarni tartibga solish jarayonlarini takomillashtiruvchi strategik omil sifatida baholanadi. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyasi samaradorligini faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki xizmatlar tezkorligi, mijozlar qamrovi, risk-menejment sifati va texnologik moslashuvchanlik orqali kompleks o'lchash zarurligi ta'kidlanadi.

Mahalliy olimlardan R.S. Azimov sug'urta biznesining raqamli transformatsiyasini iqtisodiyot subyektlari faoliyatini modernizatsiya qilish, risklarni boshqarish va xizmatlar samaradorligini oshirish vositasi sifatida talqin etadi. N.A. Mavrulova umumiy sug'urta sohasini rivojlantirishda moliyaviy barqarorlik, xizmatlar diversifikatsiyasi va boshqaruv tizimini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat beradi. L.Sh. Toshnazarova milliy sug'urta bozorining samarali faoliyatini ta'minlashda raqobat muhiti, institutsional tartibga solish va kompaniyalarning moliyaviy natijadorligini asosiy omillar sifatida ko'rsatadi. K. Ikramova moliyaviy texnologiyalar, elektron platformalar



va avtomatlashtirilgan xizmatlarning joriy etilishi sug'urta operatsiyalarining tezkorligini hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishini qayd etadi. U. Imomov esa sug'urta mahsulotlarida fintech yechimlaridan foydalanish sotuv xarajatlarini kamaytirish, mahsulotlarni individuallashtirish va bozor qamrovini kengaytirish imkonini berishini asoslaydi.

Xorijiy tadqiqotlarda M. Eling va M. Lehmann raqamlashtirish sug'urta qiymat zanjirining mahsulot yaratish, andarrayting, distributsiya va da'volarni boshqarish kabi barcha bosqichlariga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ularning yondashuviga ko'ra, raqamli texnologiyalar operatsion samaradorlikni oshiradi, biroq kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va yangi risklarning sug'urtalanish imkoniyati bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltiradi. A. Bohnert sug'urta kompaniyasida alohida texnologik loyihalarni emas, balki biznes strategiyasi, tashkiliy tuzilma va raqamli infratuzilmani birlashtiruvchi kompleks transformatsiya dasturini amalga oshirish zarurligini asoslaydi. E. Stoeckli InsurTech innovatsiyalari an'anaviy sug'urta biznes-modellarini o'zgartirib, yangi xizmatlar, platformalar va hamkorlik shakllari orqali qiymat yaratish jarayonini tezlashtirishini ko'rsatadi. J.D. Cummins esa sug'urta kompaniyalari samaradorligini baholashda resurslar, xarajatlar, risklar va moliyaviy natijalar o'rtasidagi nisbatni kompleks o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Sug'urta tashkilotlarining texnik samaradorligini baholashga oid xorijiy tadqiqotlarda raqamli va tashkiliy resurslardan oqilona foydalanish raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim mezon sifatida qaraladi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy tadqiqotlarda asosan sug'urta bozorining institutsional rivojlanishi, moliyaviy barqarorlik va raqamli xizmatlarni joriy etish istiqbollari o'rganilgan. Xorijiy adabiyotlarda esa raqamlashtirishning sug'urta qiymat zanjiri, operatsion xarajatlar, innovatsion biznes-modellar va texnik samaradorlikka ta'siri chuqurroq tahlil qilingan. Biroq O'zbekiston sug'urta tashkilotlari misolida raqamli texnologiyalarning rentabellik, xarajatlar koeffitsiyenti, mijozlar soni, xizmat ko'rsatish tezligi va risklarni boshqarish sifatiga kompleks ta'sirini baholash yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu sababli milliy sug'urta bozorining iqtisodiy va institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamlashtirish samaradorligini integral ko'rsatkichlar asosida tadqiq etish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli texnologiyalarning O'zbekiston sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholash uchun tizimli, statistik, qiyosiy va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekt sifatida milliy sug'urta bozori va unda faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlarining raqamli transformatsiya jarayonlari belgilandi. Tadqiqot predmeti esa elektron polislar, avtomatlashtirilgan andarrayting, masofaviy xizmat ko'rsatish, katta ma'lumotlar tahlili va raqamli da'volarni boshqarish vositalarining sug'urta kompaniyalari moliyaviy hamda operatsion natijalariga ta'siridan iborat.

Tahlil uchun O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati va raqamlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Milliy statistika qo'mitasi hamda sug'urta tashkilotlarining rasmiy ma'lumotlari asosiy axborot bazasi sifatida qabul qilindi. Sug'urta mukofotlari, to'lovlar, investitsiyalar, rentabellik, operatsion xarajatlar, shartnomalar va mijozlar soni dinamikasi trend hamda qiyosiy tahlil orqali baholandi. Raqamlashtirish darajasi bilan faoliyat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion-regression yondashuv asosida aniqlanib, olingan natijalar xalqaro sug'urta bozori ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi. Yakuniy xulosalar ilmiy abstraksiyalash va mantiqiy umumlashtirish usullari asosida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sug'urta bozorida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi sug'urta shartnomalarini rasmiylashtirish, mijozlarni identifikatsiya qilish, mukofotlarni qabul qilish, risklarni baholash va sug'urta da'volarini ko'rib chiqish jarayonlarini bosqichma-bosqich avtomatlashtirmoqda. Mazkur transformatsiya davlat tomonidan sug'urta polislarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish, elektron polislar aylanmasini kengaytirish va markazlashtirilgan sug'urta billing tizimini shakllantirish orqali institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Natijada sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy natijalar bilan bir qatorda elektron savdo ulushi, xizmat ko'rsatish tezligi, da'volarni qanoatlantirish darajasi va ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash ko'lamini ham muhim mezon sifatida (1-jadval).

1-jadval

Raqamli texnologiyalarning O'zbekiston sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligiga ta'sirini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar

Tahlil darajasi	Ko'rsatkich	Bazaviy davr	So'nggi davr	O'zgarish
O'zbekiston sug'urta bozori	Jami sug'urta mukofotlari	9 770,1 mlrd so'm, 2024-yil	13 463,5 mlrd so'm, 2025-yil	+37,8%
O'zbekiston sug'urta bozori	Amaldagi sug'urta shartnomalari	10,49 mln dona	13,06 mln dona	+24,5%
O'zbekiston sug'urta bozori	Kelib tushgan sug'urta da'volari	143 709 dona	274 797 dona	+91,2%
O'zbekiston sug'urta bozori	To'langan da'volarning jami da'volardagi ulushi	92,3%	96,4%	+4,1 foiz punkt
O'zbekiston sug'urta bozori	Sug'urta agentlari soni	4 804 nafar	3 684 nafar	-23,3%
"O'zbekinvest" AJ	To'liq elektron shaklga o'tkazilgan sug'urta mahsulotlari	-	15 tur	-
"O'zbekinvest" AJ	Sun'iy intellekt tizimi orqali qayta ishlanadigan polis ma'lumotlari	-	87%	-
"O'zbekinvest" AJ	Onlayn sotilgan polislar	2022-yilga nisbatan bazaviy daraja	849 080 dona, 2023-yil	+275%
"O'zbekinvest" AJ	Onlayn polislarining jami sotuvlardagi ulushi	-	77%	-
"O'zbekinvest" AJ	Umumiy sug'urta mukofotlari	1 270,6 mlrd so'm	1 614,1 mlrd so'm	+27,0%
"O'zbekinvest" AJ	To'langan da'volarning jami da'volardagi ulushi	90,7%	85,0%	-5,7 foiz punkt
"ALSKOM" AJ	Umumiy sug'urta mukofotlari	199,3 mlrd so'm	279,1 mlrd so'm	+40,0%
"ALSKOM" AJ	To'langan da'volarning jami da'volardagi ulushi	96,5%	99,3%	+2,8 foiz punkt
"ALSKOM" AJ	Kelib tushgan da'volar soni	11 263 dona	15 211 dona	+35,1%
Xalqaro sug'urta bozori	Raqamlashtirish hisobiga kutilayotgan zarar koeffitsiyenti yaxshilanishi	-	3-8 foiz punkt	-
Xalqaro sug'urta bozori	Sug'urta qiymat zanjiridagi kutilayotgan xarajatlar tejalishi	-	10-20%	-

Manba: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Swiss Re Institute va dissertatsiya materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2025-yilda O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari 37,8 foizga, sug'urta to'lovlari 35,4 foizga va amaldagi shartnomalar soni 24,5 foizga oshgan. Shu bilan birga, kelib tushgan da'volar soni 91,2 foizga ko'paygan bo'lsa-da, to'langan da'volarning jami murojaatlardagi ulushi 92,3 foizdan 96,4 foizga ko'tarilgan. Bu ko'rsatkichlar bozor miqyosida operatsiyalar hajmi tez kengayayotgan sharoitda axborot tizimlari, elektron hujjat aylanishi va avtomatlashtirilgan nazorat vositalarining ahamiyati ortayotganini ko'rsatadi. Biroq mazkur o'zgarishlarni faqat raqamlashtirish natijasi sifatida talqin qilish to'g'ri emas, chunki ularga tarif siyosati, yangi sug'urta mahsulotlari, bozor talabi va kompaniyalarning moliyaviy imkoniyatlari ham ta'sir ko'rsatadi.


Sug'urta agentlari sonining 4 804 nafardan 3 684 nafargacha qisqarishi bozor distributsiya modelidagi tarkibiy o'zgarishning muhim belgisi hisoblanadi. Ushbu jarayon sug'urta agentlari institutining to'liq yo'qolishini emas, balki an'anaviy vositachilik funksiyalarining elektron agentlar, mobil ilovalar, bank platformalari va internet-do'konlar bilan integratsiyalashayotganini anglatadi. Shunday sharoitda sug'urta tashkilotining operatsion samaradorligi filiallar va agentlar sonidan ko'ra, raqamli kanallar orqali qayta ishlanadigan operatsiyalar ulushi, mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi va bir shartnomaga to'g'ri keladigan tranzaksiya xarajatlari ko'proq bog'liq bo'lib boradi.

"O'zbekinvest" AJ tajribasi raqamli texnologiyalarning sug'urta mahsulotlarini sotish va ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligiga ta'sirini yaqqol ifodalaydi. Kompaniya tomonidan Face ID texnologiyasi, mijozlar va



agentlar uchun mobil ilovalar hamda sun'iy intellektga asoslangan Talys.SDE tizimi joriy etilgan. Mazkur tizim polislar bo'yicha mavjud ma'lumotlarning 87 foizini qayta ishlash imkonini bermoqda. Kompaniyada 15 turdagi sug'urta mahsuloti to'liq elektron formatga o'tkazilgan bo'lib, 2023-yilda internet va mobil platformalar orqali 849 080 dona polis sotilgan. Onlayn sotuvlar jami polislarining 77 foizini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 275 foizga oshgan.

“O'zbekinvest” AJda polislar sotuvining kanallar bo'yicha tarkibi, 2023-yil



Onlayn polislar soni: 849 080 dona; 2022-yilga nisbatan o'sish: 275%.

Manba: dissertatsiya materiallari va “O'zbekinvest” AJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

1-rasm. “O'zbekinvest” AJda polislar sotuvining kanallar bo'yicha tarkibi

Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, onlayn va an'anaviy sotuv kanallari nisbati 3,35:1 ni tashkil etgan. Bu har bir an'anaviy kanal orqali sotilgan polisga o'rtacha 3,35 ta elektron polis to'g'ri kelganini anglatadi. Mazkur holat raqamli texnologiyalar kompaniyaning distributsiya imkoniyatlarini kengaytirgani, xizmatlardan foydalanishni soddalashtirgani va ko'p sonli mijozlarga qo'shimcha hududiy infratuzilmasiz xizmat ko'rsatish imkonini yaratganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, kompaniyaning 2025-yildagi rasmiy natijalari raqamlashtirish samaradorligini faqat sotuv ko'rsatkichlari orqali baholash yetarli emasligini ko'rsatadi. “O'zbekinvest” AJning umumiy sug'urta mukofotlari 2024-yildagi 1 270,6 mlrd so'mdan 2025-yilda 1 614,1 mlrd so'mga oshib, 27 foizlik o'sishni qayd etgan. Biroq to'langan da'volarning jami murojaatlardagi ulushi 90,7 foizdan 85,0 foizgacha kamaygan. Bu natija raqamli sotuv kanallari tez rivojlangan taqdirda ham da'volarni tartibga solish, zararlarni baholash va mijozlar murojaatlarini boshqarish jarayonlarini alohida raqamlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

“ALSKOM” AJ misolida esa umumiy sug'urta mukofotlari 2025-yilda 40 foizga oshib, 279,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Kelib tushgan da'volar soni 35,1 foizga ko'payganiga qaramay, to'langan da'volarning umumiy da'volardagi ulushi 96,5 foizdan 99,3 foizga ko'tarilgan, rad etilgan da'volar ulushi esa 0,8 foizdan 0,4 foizgacha kamaygan. Dissertatsiyada taklif etilgan kompleks samaradorlik modelining kompaniya faoliyatiga joriy etilishi biznes jarayonlarining samaradorligi va tejamkorligini taxminan 10 foizga oshirgani qayd etilgan. Mazkur natijalar raqamli boshqaruv vositalari moliyaviy o'sish bilan bir qatorda operatsion jarayonlar sifatini ham yaxshilashi mumkinligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyot ham raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samarasini tasdiqlaydi. Swiss Re Institute hisob-kitoblariga ko'ra, sug'urtalovchilarning raqamlashtirish loyihalari zarar koeffitsiyentini 3–8 foiz punktga yaxshilash va sug'urta qiymat zanjirining ayrim bosqichlarida xarajatlarni 10–20 foizga qisqartirishga qaratilgan. Ushbu natijalar avtomatlashtirilgan ma'lumot yig'ish, risklarni aniqroq baholash, firibgarlikni aniqlash va standart operatsiyalarda inson mehnatini kamaytirish hisobiga shakllanadi. 2026-yilgi xalqaro tendensiyalar



sun'iy intellektning andarrayting, da'volar va ichki operatsiyalarda qo'llanilishi davom etayotganini, biroq uning samarasi kuchli ma'lumotlar bazasi, algoritmik shaffoflik va inson nazorati bilan ta'minlanishi lozimligini ko'rsatmoqda.

Raqamli texnologiyalarning sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligiga ta'siri uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, elektron sotuv va masofaviy identifikatsiya mijozlar qamrovini kengaytirib, distributsiya xarajatlarini kamaytiradi. Ikkinchidan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili risklarni baholash, tariflash va sug'urta portfelini boshqarish sifatini oshiradi. Uchinchidan, da'volarni avtomatlashtirilgan tartibga solish to'lovlar tezligi, shaffofligi va mijozlar qoniqishini yaxshilaydi. Biroq raqamlashtirishning ijobiy ta'siri barcha biznes jarayonlari o'zaro integratsiyalashgan, ma'lumotlar sifati ta'minlangan va texnologik investitsiyalar natijadorligi muntazam baholangan sharoitdagina to'liq yuzaga chiqadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanganini ko'rsatdi. Elektron polislar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan andarrayting va raqamli da'volarni boshqarish tizimlari sotuv hajmini kengaytirish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda risklarni aniqroq baholash imkonini bermoqda. O'zbekiston sug'urta bozorida mukofotlar, shartnomalar va da'volar sonining o'sishi raqamli boshqaruv vositalariga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirish samarasi faqat elektron sotuvlarni kengaytirish bilan cheklanmasligi lozim. Sug'urta tashkilotlarida sotuv, andarrayting, to'lovlar, antifrod va mijozlar bilan ishlash jarayonlarini yagona axborot tizimida integratsiya qilish zarur. Raqamli loyihalar natijadorligini baholashda operatsion xarajatlar, xizmat ko'rsatish muddati, da'volarni qanoatlantirish darajasi, mijozlar soni va rentabellik ko'rsatkichlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Sug'urta tashkilotlariga sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar asosida risklarni baholash tizimlarini rivojlantirish, da'volarni masofadan ko'rib chiqish mexanizmlarini joriy etish hamda xodimlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish tavsiya etiladi. Bunda kiberxavfsizlik, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish va algoritmik qarorlar ustidan inson nazoratini ta'minlash ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Ushbu choralar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi, xizmatlari sifati va bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-730-son Qonuni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5739117?ONDATE=17.04.2025%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6422925?ONDATE=22.05.2025>
3. Azimov R.S. *Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida risklarni sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati*. – Toshkent, 2022. – 35 b.
4. Mavrulova N.A. *Umumiy sug'urta sohasini rivojlantirish yo'nalishlari: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya*. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2023. – 283 b.
5. Ikramova K. Sug'urtada moliyaviy texnologiyalar: raqamli transformatsiya va innovatsiyalar // *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. – 2025. – № 4.
6. Eling M., Lehmann M. *The Impact of Digitalization on the Insurance Value Chain and the Insurability of Risks // The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice*. – 2018. – Vol. 43, No. 3. – P. 359–396. DOI: 10.1057/s41288-017-0073-0.
7. Bohnert A., Fritzsche A., Gregor S. *Digital Agendas in the Insurance Industry: The Importance of Comprehensive Approaches // The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice*. – 2019. – Vol. 44, No. 1. – P. 1–19. DOI: 10.1057/s41288-018-0109-0.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100